
OILAVIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH DAVLAT DASTURLARI

Dastur doirasida imtiyozli kreditlar birinchi navbatda kam ta'minlangan oilalarni qamrab olgan holda, daromad olishga qaratilgan muayyan mehnat faoliyati bilan shug'ullanishga ajratiladi.

Xususan: hunarmandchilik, novvoychilik, kasanachilik, kosibchilikni tashkil etish, yog'ochga ishlov berish, metal va tunuka buyumlar tayyorlash, milliy shirinliklar tayyorlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish;

Imtiyozli kreditlar 3 — 6 oygacha bo'lgan imtiyozli davr bilan 3 yildan ko'p bo'lmagan muddatga:

- bazaviy hisoblash miqdorining 150 barobarigacha ($223 \text{ ming} * 150 \text{ bar} = 33 \text{ mln } 450 \text{ ming so'mgacha}$) miqdordagi kreditlarni ajratish tijorat banklarining tuman filiallari
- bazaviy hisoblash miqdorining 1000 barobarigacha ($223 \text{ ming} * 1000 \text{ bar} = 223 \text{ mln so'mgacha}$) miqdordagi kreditlarni ajratish tijorat banklarining viloyat filiallari;
- bazaviy hisoblash miqdorining 1000 barobaridan ortiq ($223 \text{ ming} * 1000 \text{ bar} = 223 \text{ mln so'mdan ortiq}$) miqdordagi kreditlarni ajratish Dastur koordinatorlari (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Moliya vazirligi va Iqtisodiyot va sanoat vazirligi) bilan kelishilgan holda tijorat banklarining viloyat filiallari vakolatida ekanligi belgilab qo'yilgan.
- Ta'minotchi tashkilotlarga hamda aholi xonadonlarida yetishtirilgan mahsulotlarni sotib oluvchi tadbirkorlik subhektlariga ham imtiyozli kreditlar ajratilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2019 yil 24 oktyabrdagi PQ-4498-son qaroriga muvofiq dasturga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar:

u Dasturlar doirasidagi loyihalarni kreditlash AT Xalq banki, «Mikrokreditbank» ATB va «Agrobank» ATB banklar orqali amalga oshiriladi.

u Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasida (hozirgi kunda 16 foiz) ajratiladi;

u Jamg'armalar, xususan:

-Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi;

-Hokimliklar huzurida yangi ish o'rinlari tashkil etishni rag'batlantirish hududiy jamg'armalari;

-Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash jamoat jamg'armasi;

-«Yoshlar— kelajagimiz» jamg'armasi;

-Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi;

Boshqa jamg'armalar hisobidan tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarini qoplash uchun *kompensatsiya va subsidiyalar* berishga ruxsat etildi;

MUROJAT UCHUN TELEFONLAR:

Farg'ona shahar Tadbirkorlikka ko'maklashish bo'limi

Xizmat telefoni: 73-243-91-40

Farg'ona shahar aholini ish bilan band qilish markazi

Xizmat telefoni: 73-244-19-49

Farg'ona shahar xokimligi Moliya bo'limi

Xizmat telefoni: 73-244-45-54

